

## Dunyo tomonlari



Dalaga chiqib yoki tepalikka ko'tarilib, atrofga sekin aylanib qarasangiz, yer bilan osmonni ajratib turgan ufq chizig'ini ko'rasiz.

**Gorizont** – bu osmon bilan yer o'rtasidagi ufq chizig'i. Biz uzoqlarga qarasak, yer bilan osmon uchrashib, shu chiziqda birlashib ketgandek tuyuladi.

Ufq chizig'iga yetib olishning iloji yo'q, chunki odam yaqinlashgan sari ufq yanada uzoqlashib boraveradi. Odamning qayerda turganiga qarab, ufqning ko'rinishi o'zgaradi. Masalan, tog'ning cho'qqisida yoki baland binoning tepasida turgan bo'lsangiz, ufq ham balandroq ko'rinadi. Agar pastroq joyda, masalan, dengiz qirg'og'ida turgan bo'lsangiz, ufq pastroq ko'rinadi.



**Shimol** – bu Yerning Shimoliy qutb joylashgan tomoni. Kompasning ko'rsatkichi doim shimol tomonni ko'rsatib turadi.

**Janub** – bu Yerning Janubiy qutb joylashgan tomoni. Janub shimolning qarama-qarshi tomonida joylashgan.

**Sharq** – bu erta tongda quyosh ufqdan ko‘tariladigan tomon. Shuning uchun “Quyosh sharqdan chiqadi”, deyiladi.


**G‘arb** – bu kechqurun quyosh ufqqa botadigan tomon. Shuning uchun “Quyosh g‘arbga botadi”, deyiladi.



Qaysi nomerdagi avtomobillar janubga, qaysilari shimolga, qaysilari sharqqa va qaysilari g‘arbga ketayotganini ayting.



**Kompas** – bu dunyo tomonlari – shimol, janub, sharq va g‘arbni aniqlashga yordam beradigan ajoyib asbob. Kompasning magnitli ko‘rsatkichi doim shimol tomonni ko‘rsatib turadi.



**Magnit (ohanrabo)** – bu metall buyumlarni o‘ziga torta oluvchi predmet.

Shuningdek, kompas bo‘linmalarga ajratilgan bo‘lib, unda dunyo tomonlari shimol – Shi, janub – Ja, g‘arb – G‘a, sharq – Sha harflari bilan belgilab qo‘yiladi. Bu asosiy tomonlar o‘rtasida oraliq tomonlar joylashadi.



**Shi. G'a.** – shimoli-g'arb

**Ja. G'a.** – janubi-g'arb

**Shi. Sha.** – shimoli-sharq

**Ja. Sha.** – janubi-sharq



Qo'lingizdagi kompasning ko'rsatkichi shimolga qarab turgan bo'lsa, to'g'ringizda shimol, ortingizda janub, o'ng tomoningizda sharq, chap tomoningizda esa g'arb bo'ladi.



Kompasga qarab, bir-biriga qarama-qarshi joylashgan to'rt juft tomonlarni toping.



Katak daftar varag'ining to'rt chetiga dunyo tomonlarining nomlarini yozing: Shi, Ja, Sha, G'a. Varaqning o'rtasiga katta nuqta qo'yib, M ("Men") deb yozing. Endi yo'nalish chizishni boshlaymiz. 1 qadam – 1 katak.

1. Shimolga tomon 3 qadam.
2. Sharqqa tomon 2 qadam.
3. Janubga tomon 4 qadam.
4. G'arbga tomon 4 qadam.
5. Shimolga tomon 5 qadam.

"M" nuqtadan qanchalik uzoqqa borib qoldingiz?